



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No3
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, aprel-may.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjajevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukaramova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

BUXGALTERIYA VA EKOLOGIK HISOBOT (ESG HISOBOTLARI).....	21
Abdulkarimov Qamariddin Isroiljon o'g'li, Abdurashidov Faxriddin Fazliddin o'g'li, Beknazarov Zafarjon Ergachevich	
YASHIL INVESTITSİYALARNI RIVOJLANTIRISH – BARQAROR IQTISODIY O'SISHNING ASOSIY YO'NALISHI.....	26
Yarboyeva Farida Ulug'bek qizi, Yoqubova Zilola To'ra qizi	
RAQAMLI SOLIQ NAZORATINING BUXGALTERIYA TIZIMIGA TA'SIRI.....	30
Abdulaxatov Mirkomil O'rol o'g'li, Rustamov Davron Rustamovich	
ИННОВАЦИОННЫЙ МАРКЕТИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....	34
Насиров Дилшод Фархадович, Халманова Шахзода, Кенесбаева Азиза	
O'ZBEKISTON TURIZM TIZIMIDA QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	39
Normurodov X.E., Abdurazakova Farangis Dilshod qizi	
СОВРЕМЕННЫЕ ШКОЛЫ НАУКИ УПРАВЛЕНИЯ И ИХ ОСНОВНЫЕ ИДЕИ.....	44
Латипов Ашур Али Рустам ўғли, Джамолова Хилола Исматиллаевна	
O'ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBINI MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA MOSLASHTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI.....	50
Qosimova Fazilat Sherzod qizi, Shermuxamedov Bexzodjon Usmonovich	
MARKAZIY BANK RAQAMLI VALYUTALARI VA GLOBAL PUL TIZIMINING TRANSFORMATSİYASI.....	57
Jumanova Shaxlo Boxodir qizi, Shovkatov Nodirjon Ne'matjon o'g'li	
RAQOBAT VA MONOPOLIYA SHAROITIDA BOZOR SAMARADORLIGI HAMDA IQTISODIY RIVOJLANISH OMILLARI.....	62
Yo'ldashaliyev Muxammadaziz Xabibulla o'g'li, Yoqubova Zilola Tura qizi	
ИНВЕСТИЦИИ В ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОЙ ЭКОНОМИКИ.....	68
Насиров Дилшод Фархадович, Тохилова Азиза Олимжоновна, Исокулова Хуснора алохиддиновна	
FRANCHAYZING FAOLIYATIDA RAQAMLI MARKETING VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	74
Xodjayev Anvar Rasulovich, Nasimov Dilshodbek Hotam o'g'li	
AGROINDUSTRIAL BIOMASSANING IKKILAMCHI UTILIZATSİYASI – YOPIQ SIKL IQTISODIY MODELINING INFRATUZILMAVIY TAYANCHI: IQTISODIY-EKOLOGIK MEZONLAR VA MILLIY AMALIYOT.....	80
Kadirova Maraljon Matyakubovna, Eshbekov Murodjon Uktamovich	
ZAMONAVIY TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA ULARNING MOLIVAVIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI.....	87
Alimov Umid Xamid o'g'li, Rustamov Maqsud Suvonqulovich	
RAQOBATLASHMAGAN BOZOR SHAROITIDA NARX BELGILASH TAMOYILLARI.....	92
G'aniyev Fayzbek Abduxamid o'g'li, Jumanazarov Og'abek Ahmadjon o'g'li, Shukurov Tohirjon Izzatullo o'g'li	
DEVELOPMENT OF LEGAL REGULATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE.....	104
Akhrorova Munavvar Farkhod kizi, Abdalimov Orzubek Tuychibek o'g'li, Samiyev Damir Ahmad o'g'li, Rakhmonov Umrzoq Otaboy o'g'li	



KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA BANK KREDITLARINING AHAMIYATI.....	112
Ubaydulloyeva Rayhona Fahriddin qizi, F.U.Umarov	
O'ZBEKISTONDA TURIZM XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASINI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	119
Raxmonova Sabina Navro'z qizi, Nazar Nazarov G'ulomovich	
TARMOQ TUZILMASINI SHAKLLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING AHAMIYATI.....	124
Samadova Solik qizi, Normurodov Husan	
TIJORAT BANKLARINING RAQAMLI XIZMATLARIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	130
Tillayev Xurshidjon Sulaymon o'g'li, Karimov Umrbek Javlonbek o'g'li	
ISLOM MOLIYASINI O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISHI.....	137
Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.	
XALQARO VA MILLIY BUXGALTERIYADA NOMODDIY AKTIVLARNI HISOBGA OLIH, BAHOLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	141
Axmetova Nasiba Axmetovna, Mavlanov Normo'min Normamatovich	
URBANIZATSIYA SHAROITIDA TRANSPORT MARKETINGINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	147
Iskandarov Quadrat Shuxratovich, Ataniyazova Zarina Niyetbay qizi	
IQTISODIY ATAMALARNING O'ZBEK TILIDA SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI.....	154
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna, Salamova Oliya	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING HAJMI, OMILLARI VA UNI KAMAYTIRISH YO'LLARI.....	158
Tohirova Gulnoza Zokirovna, Tillayev Xurshidjon Sulaymon o'g'li	
RAQAMLI BANK TIZIMLARI VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR (FINTECH)NING AN'ANAVIY BANKLARGA TA'SIRI.....	164
Shermuxamedov Bezxodjon Usmonovich, Qosimova Fazilat Sherzod qizi, Abdumalikova Busalima Abduvali qizi	
SUN'IY INTELLEKTNING AXBOROT BOZORIGA TA'SIRI: MAHSULOT VA MEHNAT BOZORIDAGI O'ZGARISHLAR.....	170
Mo'ydinjonova Durdonaxon Ilhomjon qizi, Ismanov Ibrohim Nabiyeovich	
ICHKI AUDIT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO STANDARTLAR VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA.....	175
Axmedov Xasan Ruzibayevich, Ruzibayeva Karima Shavkat qizi, Abdumalikova Busalima Abduvali qizi	
SARATON KASALLIGIDA PSIXOLOGIK REABILITATSIYA: "5 OLAM" MODELINI KENGAYTIRISH VA AMALIY QO'LLASH.....	182
Salayeva Laylo Shavkatovna, Toshtemirov Doston Tohirjon o'g'li	
THE CHALLENGES OF MANAGING CROSS-FUNCTIONAL TEAMS IN PHARMACEUTICAL PROJECTS.....	187
Murodova Feruzakhon Talatovna	
GREEN ECONOMY AND GREEN INVESTMENT: SUSTAINABLE AS A MAIN FACTOR OF ECONOMIC GROWTH.....	194
Tursinov A.J., Jalgasbaeva J.A., Axmetova U.M.	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA STRATEGIK MENEJMENTNING AHAMIYATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	199
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich, Dilmurodov Komiljon Ahmad o'g'li	
O'ZBEK TILINING TARIXIY TARAQQIYOT BOSQICHLARI.....	204
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna, Baxronov Timur Rustamovich	



ZAMONAVIY TASHKILOTLARDA STRATEGIK BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	208
Makhmudov Sunnatjon Abdujabbor o'g'li, Ashurova Jasmina Jo'ra qizi	
O'ZBEKISTONDA ATROF-MUHIT IQTISODIYOTI VA BARQAROR RIVOJLANISH MASALALARI.....	213
Boltayeva Sh.B., Hayitova Charos, Latipova Jasmina	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	216
Izzatillayeva Munisabonu Ikromjon qizi, Yangiboyev Sirojddin Juramurodivich	
O'ZBEKISTON EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA DIVERSIFIKATSIYANING ROLI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	220
Ashurova Nilufar Yuldosh qizi, Xurshidjon Tillayev Sulaymon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH.....	225
Iskenderov Axmet Maksetbaevich, Irisaliyeva Kamola Otabekovna	
MUQIMIY IJODIDA SAYOHAT MOTIVLARI VA ULARNING ADABIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI.....	228
Erkaboieva Jasmina Safarali qizi, Muxitdinova Muxlisa Sadriddinovna	
HISTORICAL STAGES OF DEVELOPMENT OF THE UZBEK LANGUAGE.....	233
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna, Komilov Sarvar Firdavs ugli	
O'ZBEK TILINING RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDAGI O'RNI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	237
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna, Faruxov Shoxrux Tolibovich	
УЧЁТ ТРУДА И ЗАРАБОТНОЙ ПЛАТЫ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРИКЛАДНЫЕ АСПЕКТЫ.....	242
Махмуджанов Мухаммадали Максуджан угли, Абдурашидова Марина Сагатовна	
O'ZBEKISTONNING GLOBAL IQTISODIYOTDAGI ROLI.....	246
Xudoynazarov Murod Maxmudjanovich, Ramanberdiyev Umidbek Jamoladdin o'g'li	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ТУРИЗМА: АНАЛИТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ НА ПРИМЕРЕ НИУ ВШЭ.....	249
Бозорова Фарангиз Шерзод кизи, Мусаев Озоджон	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MILLIY RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	255
Sharipboyev Husanboy Marks o'g'li, Abduraxmonova Aqida Fayzulla qizi	
NAVOIY ERKIN IQTISODIY ZONASINING NAVOIY VILOYATI IQTISODIYOTIDA TUTGAN O'RNI.....	260
Raxmonov Ilg'or G'aybullayevich, Zuvaydullayeva Shahzoda Sayfiddin qizi	
KORXONALARDA KASSADAGI PUL MABLAG'LARI HISOBINING HOZIRGI HOLATI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	265
Isroilov Zuhridin, Toshimov Azizbek	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING TRANSFORMATSIYASI VA UNING IJTIMOY-IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	269
Karimova Latofat Sadullayevna, Jabborov Abdulla Akbar o'g'li	
O'ZBEKISTON FUQAROLARINING MEHNAT MIGRATSIYASIDA HUQUQIY HIMOYASINI TA'MINLASH.....	276
Shamsiddinov Yahyobek Anvar o'g'li, Musayev Ozodjon	
IQLIM O'ZGARISHINING IQTISODIYOTGA TA'SIRI: QISHLOQ XO'JALIGI VA SANOATDAGI XAVF VA YO'QOTISHLAR.....	282
Shohibov Azizbek Dilshod o'g'li, Karimova Komila Daniyarovna	



IQLIM O'ZGARISHINING IQTISODIYOTGA TA'SIRI: QISHLOQ XO'JALIGI VA SANOATDAGI XAVF VA YO'QOTISHLAR

Sohibov Azizbek Dilshod o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Buxgalteriya hisobi fakulteti 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar:

Karimova Komila Daniyarovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha birinchi prorektor
Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot iqlim o'zgarishining O'zbekiston milliy iqtisodiyotiga, xususan, qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlariga ko'rsatayotgan kompleks ta'sirini tahlil etishga qaratilgan. 2021–2025-yillar oralig'idagi rasmiy statistik ma'lumotlar asosida haroratning ko'tarilishi, yog'ingarchilik rejimining o'zgarishi hamda Orol dengizi havzasidagi suv resurslarining qisqarishi bilan bog'liq iqtisodiy yo'qotishlar miqdoriy jihatdan baholangan. Tadqiqotda iqlim xavflarini sektorlar kesimida tasniflovchi analitik model ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekistonning 2030-yilgacha yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasiga mos keluvchi amaliy tavsiyalar shakllantirilgan. Tadqiqot natijalari iqlim o'zgarishi qisqa muddatli hosildorlik pasayishlari bilan bir qatorda uzoq muddatli investitsiya muhiti va makroiqtisodiy barqarorlikka ham sezilarli ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

Kalit so'zlar: iqlim o'zgarishi, iqtisodiy xavflar, qishloq xo'jaligi, sanoat, O'zbekiston, yashil iqtisodiyot, suv resurslari, iqlimga moslashuv.

Abstract: This study provides a comprehensive analysis of the impact of climate change on the national economy of Uzbekistan, with a particular focus on the agricultural and industrial sectors. Drawing on official statistical data for 2021–2025, the research quantitatively assesses economic losses associated with rising temperatures, changing precipitation patterns, and declining water resources in the Aral Sea basin. The study develops an analytical model for classifying climate risks across sectors and formulates practical recommendations consistent with Uzbekistan's Green Economy Transition Strategy through 2030. The findings indicate that climate change affects not only short-term agricultural productivity, but also the long-term investment environment and macroeconomic stability.

Key words: climate change, economic risks, agriculture, industry, Uzbekistan, green economy, water resources, climate adaptation.

Аннотация: Данное исследование посвящено комплексному анализу влияния изменения климата на национальную экономику Узбекистана, в частности на сельское хозяйство и промышленность. На основе официальных статистических данных за 2021–2025 годы проведена количественная оценка экономических потерь, связанных с повышением температуры, изменением режима осадков и сокращением водных ресурсов в бассейне Аральского моря. В исследовании разработана аналитическая модель классификации климатических рисков по секторам, а также сформулированы практические рекомендации, соответствующие стратегии перехода Узбекистана к зелёной экономике до 2030 года. Результаты исследования показывают, что изменение климата оказывает существенное влияние не только на краткосрочную урожайность, но и на долгосрочный инвестиционный климат и макроэкономическую устойчивость.

Ключевые слова: изменение климата, экономические риски, сельское хозяйство, промышленность, Узбекистан, зелёная экономика, водные ресурсы, климатическая адаптация.



KIRISH

XXI asrning ikkinchi choragida iqlim o'zgarishi muammosi global miqyosdan chiqib, mintaqaviy va milliy iqtisodiyotlar uchun bevosita operatsion xavf omiliga aylandi. O'rta Osiyo mintaqasi, jumladan, O'zbekiston geografik joylashuvi hamda suv ta'minotining Amudaryo va Sirdaryo havzalariga bog'liqligi sababli iqlim o'zgarishi ta'siriga nisbatan yuqori sezgir hududlar qatoriga kiradi. IPCCning 2022-yildagi oltinchi baholash hisobotida ta'kidlanganidek, O'rta Osiyo mintaqasida o'rtacha harorat global o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan ikki barobar tezroq ko'tarilmoqda va ushbu tendensiya 2050-yilgacha davom etishi kutilmoqda [3].

O'zbekiston uchun mazkur masala alohida ahamiyat kasb etadi: mamlakat YalMning taxminan 25–27 foizi qishloq xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi, sanoat esa asosan suv sig'imi yuqori bo'lgan tarmoqlar — to'qimachilik, metallurgiya va kimyo sanoatidan iborat. Bunday sektoral tarkib iqtisodiyotning iqlim xavflariga nisbatan sezgirligini belgilab beradi. Shuningdek, 2026-yilda O'zbekiston hukumati tomonidan iqlimga moslashuv bo'yicha yangi milliy rejani tasdiqlash rejalashtirilgani ushbu tadqiqotning dolzarbligini yanada oshiradi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — rasmiy statistik ma'lumotlar asosida iqlim o'zgarishining qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlaridagi iqtisodiy yo'qotishlarga ta'sirini miqdoriy va sifat jihatdan baholash, xavflarni tizimli tasniflash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot metodologiyasi sifatida tanqidiy tahlil, taqqoslama baholash va trend-tahlil usullaridan foydalanildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqlim o'zgarishining iqtisodiyotga ta'siri bo'yicha ilmiy bazaning poydevori Nicholas Sternning 2007-yildagi fundamental asarida shakllantirilgan. Ushbu monografiyada iqlim o'zgarishining global YalMga ta'siri modellashtirilgan bo'lib, moslashuv choralarini o'z vaqtida amalga oshirmaslik holatida 2100-yilga borib yo'qotishlar yalpi jahon mahsulotining 5–20 foizigacha yetishi mumkinligi prognoz qilingan [4]. Stern yondashuvining ahamiyati shundaki, unda iqlim o'zgarishi nafaqat ekologik, balki iqtisodiy “eksternaliya” sifatida ham baholanib, davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash choralarining zarurligi asoslab berilgan.

Xo'jalik sektorlarida harorat ta'sirini empirik o'rganish bo'yicha Marshall Burke, Solomon Hsiang va Edward Miguelning 2015-yilda Nature jurnalida chop etilgan tadqiqoti muhim o'rin tutadi. Mazkur ishda 166 mamlakat bo'yicha yarim asrlik ma'lumotlar tahlil qilinib, haroratning 1°C ga ko'tarilishi rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishni o'rtacha 1,2–1,4 foiz punktga pasaytirishi asoslab berilgan [5]. Xususan, O'rta Osiyo kabi subtropik mintaqalar ushbu ta'sirga nisbatan yuqori sezgir hududlar qatoriga kirishi qayd etilgan.

Melissa Dell, Benjamin F. Jones va Benjamin A. Olkenning 2012-yilda American Economic Journal nashrida e'lon qilingan maqolasida harorat shoklari hamda iqtisodiy o'sish o'rtasidagi panel ma'lumotlarga asoslangan kauzal bog'liqlik aniqlangan. Tadqiqotchilar haroratning ortishi mehnat unumdorligini pasaytirishi va kapital jamg'arilishiga ta'sir ko'rsatishi orqali iqtisodiy o'sish sur'atlarini sekinlashtirish mexanizmini batafsil tavsiflaganlar [6]. Ushbu mexanizm O'zbekiston singari qishloq xo'jaligi ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlarda ayniqsa dolzarb ahamiyatga ega.

Qishloq xo'jaligiga iqlim ta'sirini o'rganish sohasidagi muhim ishlardan biri Robert Mendelsohn, William Nordhaus va Daigee Shaw tomonidan ishlab chiqilgan 1994-yildagi Rikkardian tahlil hisoblanadi. Ushbu yondashuvda iqlim o'zgarishining qishloq xo'jaligiga iqtisodiy ta'siri yer narxlari va hosildorlik ko'rsatkichlari orqali baholangan hamda subtropik iqlim mintaqalarida degradatsiya xavfi yuqori ekanligiga e'tibor qaratilgan [7]. Keyinchalik ushbu metodologiya O'rta Osiyo sharoitiga ham moslashtirilib qo'llanilgan.

World Bankning 2022-yildagi “Iqlim va taraqqiyot” hisobotida rivojlanayotgan mamlakatlar uchun iqlimga moslashuv investitsiyalarining metodologik asoslari ishlab chiqilgan. Hisobotga ko'ra, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida YalMning kamida 2–3 foizini iqlimga moslashuv va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish chora-tadbirlariga yo'naltirish tavsiya etiladi. Aks holda, 2050-yilga borib iqtisodiy yo'qotishlar ushbu investitsiyalar hajmidan bir necha barobar yuqori bo'lishi mumkinligi qayd etilgan [8].

Milliy kontekstda esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” PF-60-sonli Farmoni¹ alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur strategiyada 2026-yilgacha bo'lgan davr uchun qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda energiya samaradorligini oshirish kabi iqlimga moslashuv bilan chambarchas bog'liq ustuvor vazifalar belgilab berilgan [2]. Ushbu hujjat tadqiqotning muhim normativ-huquqiy asoslaridan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda iqlim o'zgarishining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'sirini baholash uchun statistik, taqqoslama va analitik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi

1 <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>



Davlat statistika qo'mitasi, World Bank, Intergovernmental Panel on Climate Change hamda boshqa xalqaro tashkilotlarning rasmiy ma'lumotlari tashkil etdi. Tahlil jarayonida 2021–2025-yillar bo'yicha qishloq xo'jaligi, sanoat va suv resurslariga oid ko'rsatkichlar o'rganilib, trend-tahlil va miqdoriy baholash usullari qo'llanildi. Shuningdek, iqlim xavflarining iqtisodiy oqibatlarini aniqlashda tizimli yondashuv va ilmiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq xo'jaligi iqlim o'zgarishiga nisbatan eng sezgir iqtisodiy tarmoqlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2021–2025-yillar davomida sug'oriladigan yer maydoni 4,28 mln gektardan 4,10 mln gektargacha qisqargan [9]. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha eng yuqori o'zgarishlar geografik jihatdan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida kuzatilmoqda.

Haroratning ko'tarilishi ekinlar fenologiyasiga ta'sir ko'rsatmoqda: bug'doyning pishib yetilish davri qisqarmoqda, paxta ekinlarida esa issiqlik stressining kuchayishi hosildorlikka salbiy ta'sir qilmoqda. Don ekinlari hosildorligi 2021-yildagi 40,2 s/ga dan 2025-yilda 36,9 s/ga gacha kamaygan bo'lib, bu 8,2 foizlik pasayishni anglatadi. Taqqoslash uchun, O'zbekiston sharoitida har 1 s/ga hosildorlik kamayishi taxminan 47–52 mln so'mlik iqtisodiy yo'qotishga tengdir (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy ko'rsatkichlari (2021–2025)²

Ko'rsatkich	2021	2022	2023	2024	2025
QX YaIM ulushi, %	27.1	26.4	25.8	25.0	24.3
Don ekinlari hosili, s/ga	40.2	38.7	39.5	37.8	36.9
Paxta hosili, s/ga	27.8	26.5	27.1	25.6	25.0
Suv iste'moli, mlrd m ³	51.2	50.8	49.7	48.9	47.5
Iqlimiy zarar, mln. so'm	1 247	1 568	1 890	2 130	2 350
Sug'oriladigan maydon, mln.ga	4.28	4.21	4.19	4.14	4.10

Sanoat tarmoqlari iqlim o'zgarishidan qishloq xo'jaligiga nisbatan bilvosita, biroq strategik jihatdan muhim yo'nalishlar orqali ta'sirlanadi. Asosiy omillardan biri — suv resurslari hajmining qisqarishidir. O'zbekistonning yirik sanoat tarmoqlari, jumladan metallurgiya, kimyo va to'qimachilik sanoati, suv sig'imi yuqori bo'lgan texnologiyalarga asoslangan. 2021–2025-yillarda suv iste'moli hajmining 51,2 mlrd m³ dan 47,5 mlrd m³ gacha kamayishi sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlarini optimallashtirish hamda texnologik jarayonlarni qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirdi.

Bundan tashqari, 2023–2024-yillarda kuzatilgan issiqlik to'lqinlari, ayniqsa iyul–avgust oylarida havo haroratining 45°C dan yuqori ko'rsatkichlarga yetishi energetika tizimlariga sezilarli yuklama berdi. Energetika tarmog'ida issiqlik to'lqinlari davrida konditsionerlarga bo'lgan talabning 23–28 foizga oshishi xarajatlar hajmining ko'payishiga olib kelib, sanoat tarmoqlarini barqaror energiya bilan ta'minlash jarayoniga qo'shimcha talablarni yuzaga keltirdi (2-jadval).

2-jadval. Iqlim xavflarining sektorlar bo'yicha tasnifi va iqtisodiy ta'sir mexanizmlari³

Xavf turi	Ta'sir ko'lam	Asosiy sektor	Iqtisodiy ta'sir mexanizmi
Harorat o'sishi (+1°C)	Yuqori	QX, energetika	Hosildorlik 5–8% ga pasayadi; sovutish xarajatlari o'sadi
Yog'ingarchilik kamayishi	O'rta-yuqori	QX, suv ta'minoti	Sug'orishga suv sarfi oshadi; sug'oriladigan maydon qisqaradi
Ekstremal ob-havo	Yuqori	QX, infratuzilma	Ekinlar nobud bo'ladi; logistika va transport xarajatlari ortadi
Suv resurslari kamayishi	Juda yuqori	Barcha tarmoqlar	Energiya ishlab chiqarish qisqaradi; qayta ishlash sanoati cheklanadi
Ko'chib yuruvchi qumliklar	O'rta	QX, qurilish	Ekin maydonlari yo'qoladi; infratuzilma qayta qurilish xarajatlari ortadi
Issiqlik to'lqinlari	O'rta	Sanoat, xizmatlar	Mehnat unumdorligi pasayadi; salomatlik xarajatlari oshadi
Iqlim migratsiyasi	Uzoq muddatli	Barcha sektorlar	Ishchi kuchi kamayadi; shahar infratuzilmasiga bosim kuchayadi


2 Muallif ishlanmasi

3 Muallif ishlanmasi



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019-yildagi " 2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-sonli qarori⁴ qabul qilindi.

2026-yilga mo'ljallangan islohotlar orasida agroiqtisodiy sug'urta tizimini takomillashtirish alohida e'tiborga loyiqdir. Amaldagi tizim iqlim bilan bog'liq yo'qotishlarning taxminan 12–18 foizini qoplash imkoniyatiga ega bo'lsa, yangi mexanizm orqali ushbu ko'rsatkichni 45–50 foizgacha oshirish rejalashtirilmoqda. Bu esa qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va investitsiya muhitini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.



1-rasm. Iqlim o'zgarishi sabab yuzaga kelgan iqtisodiy zararlar dinamikasi, O'zbekiston, 2021–2025 yillar (million so'mda)⁵

1-rasmda 2021–2025-yillar davomida iqlim o'zgarishi bilan bog'liq iqtisodiy zararlar hajmi sezilarli darajada oshib, 1 247 mln so'mdan 2 350 mln so'mgacha yetgan. Bu ko'rsatkich yillik o'rtacha 17,2 foizlik o'sish sur'atiga mos keladi hamda O'rta Osiyo mintaqasida iqlim omillarining iqtisodiy jarayonlarga ta'siri tobora kuchayib borayotganini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, iqlim o'zgarishi O'zbekiston iqtisodiyoti uchun nafaqat ekologik, balki makroiqtisodiy miqyosdagi muhim omillardan biri sifatida yondashishni talab etadi. 2021–2025-yillardagi statistik tendensiyalar, jumladan hosildorlikning pasayishi, suv resurslari hajmining qisqarishi hamda iqlim bilan bog'liq iqtisodiy zararlarining sezilarli darajada ortishi mavjud xo'jalik modelini iqlim barqarorligi nuqtayi nazaridan yanada takomillashtirish zaruratini ko'rsatmoqda.

Tadqiqot doirasida quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi. Birinchidan, qishloq xo'jaligi sektori iqlim xavflariga nisbatan eng yuqori sezgirlikka ega bo'lib, hosildorlikdagi yo'qotishlarning iqtisodiy xarajatlar bilan uyg'unlashuvi umumiy iqtisodiy zarar hajmining ortishiga olib kelmoqda. Ikkinchidan, sanoat sektori suv ta'minoti va energiya iste'moli omillari orqali bilvosita, biroq strategik jihatdan muhim ta'sirlarni boshdan kechirmoqda. Uchinchidan, 2026-yilga mo'ljallangan yashil iqtisodiyot islohotlari iqtisodiyotni iqlimga moslashtirish yo'nalishida muhim ahamiyat kasb etib, ularning samaradorligi moliyalashtirish hajmi hamda institutsional hamkorlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilar ilgari suriladi:

1. iqlimga moslashuvchan qishloq xo'jaligi sug'urta tizimini 2026-yilgacha bosqichma-bosqich joriy etish;
2. sanoat korxonalariga iqlimga moslashuv texnologiyalarini qo'llash bo'yicha soliq imtiyozlarini taqdim etish;
3. viloyatlar kesimida iqlim xavflarini kamaytirishga qaratilgan hududiy dasturlarni ishlab chiqish;
4. YalMning kamida 1,5 foizini iqlim investitsiyalariga yo'naltirish.

Mazkur tavsiyalar World Bank hamda Intergovernmental Panel on Climate Change tomonidan tavsiya etilgan metodologik yondashuvlar bilan uyg'un holda shakllantirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019-yildagi " 2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-sonli qarori <https://lex.uz/docs/-4539502>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

4 <https://lex.uz/docs/-4539502>

5 Muallif ishlanmasi



3. Intergovernmental Panel on Climate Change. (2022). *Climate Change 2022: Impacts, Adaptation and Vulnerability. Contribution of Working Group II to the Sixth Assessment Report*. Cambridge University Press. DOI: 10.1017/9781009325844.
4. Nicholas Stern. (2007). *The Economics of Climate Change: The Stern Review*. Cambridge University Press. ISBN: 978-0-521-70080-1.
5. Marshall Burke, Solomon Hsiang, & Edward Miguel. (2015). Global non-linear effect of temperature on economic production. *Nature*, 527(7577), 235–239. DOI: 10.1038/nature15725.
6. Melissa Dell, Benjamin F. Jones, & Benjamin A. Olken. (2012). Temperature shocks and economic growth: Evidence from the last half century. *American Economic Journal: Macroeconomics*, 4(3), 66–95. DOI: 10.1257/mac.4.3.66.
7. Robert Mendelsohn, William Nordhaus, & Daigee Shaw. (1994). The impact of global warming on agriculture: A Ricardian analysis. *American Economic Review*, 84(4), 753–771. JSTOR: 2118029.
8. World Bank. (2022). *Climate and Development: An Agenda for Action. Emerging Insights from World Bank Group 2021–22 Country Climate and Development Reports*. Washington, DC. URL: [World Bank](https://www.worldbank.org/)
9. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2024). *O'zbekiston raqamlarda – 2024*. Statistika to'plam. Toshkent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

3-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>